

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘zbek shevashunosligi markazi

**“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari**

2023-yil 20-may

TOSHKENT – 2023

DOSTONLAR – LUG‘AT BOYLIQIMIZ MANBAI

EPICS ARE THE SOURCE OF OUR VOCABULARY

Abdumurod Tilavov,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

***Annotation.** It is known that Uzbek folk epics are the most prolific carriers of the living folk language. Uzbek folk epics are masterpieces with such a wide vocabulary. In the article, the image of a horse found in the Uzbek literary language and dialects, used in works of art, translated works, and the names of the equipment used for riding a horse are analyzed.*

***Keyword:** Horse, epic, ezar, saddle, qaptalb ayil, cakes.*

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘ldiki, dostonda baxshi sanab o‘tgan va ayni paytda otlarda qo‘llanilayotgan ot anjomlari, ularning nomlarini chavandozlar va keksa yoshdagilargina bilishar ekan. Keyingi avlod vakillari esa, moddiy madaniyatimizning, qolaversa, o‘tmishimiz, til ganjinamizning bu muhim unsuridan xabarsiz qolmoqda. Ajdodlari chavandoz, dostonlardagi ot anjomlarining mohir ustasi bo‘lgan avlod uchun bu anchayin salbiy holat, albatta. Ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ot anjomlari tasnifiga kengroq o‘rin berishni ma‘qul deb topdik.

Qishloq chavandozlari bilan bo‘lgan suhbatlar va kichik tadqiqotlarimiz natijasida biz ot anjomlarini shartli ravishda ikkiga bo‘lishni lozim topdik:

1. Zaruriylar.

2. Bezaklilar. Bu tur anjomlarga o‘mildiriq, bellik, quyushqon va qo‘taslar kiradi.

Avvalo zaruriy anjomlardan egar bilan tanishib chiqsak. Mahmud Koshg‘ariyda egar “**ezar**” tarzda keladi ¹. Egari qosh, karsan, bel, qaptal kabi besh asosiy qismdan iborat.

Qosh mushtning “kobra” holatini eslatadi. Qozoq turklari egarning old qismida turtib chiqqan bu qismini **bas** (ya‘ni, bosh) deyishadi. “Bas”larning tuzilishiga ko‘ra egar turlari farqlanadi. Masalan, **uyrek bas er** (o‘rdak boshli egar), **qazyiq bas er** (qoziiq boshli egar), **shoshaq bas er** (boshi uchli egar) kabi.

Dostonlarimizda egar qoshi “egar boshi” tarzda ham uchraydi: “... G‘irot uloqning ustiga borib yotdi. Janjal “endi mening ishim tindi, vaqtli chiqaring to‘dadan, ot orasida oyog‘im sindi, deb yig‘lab, ko‘zini ochib qarasa, uloqning bir puti payini teshgan ekan. Avaylab Janjal ushladi, cho‘zib tortib olib, teshgan yeridan egarning boshiga ildi. G‘irot joyidan qo‘zg‘alib, rost bo‘lib turdi”[Malla savdogar 1998: 352].

“Devoni lug‘otit turk”da “qosh”ning bir necha ma‘nolari berilsa-da, bu izohlarning birortasi egar qoshi bilan aloqasi yo‘q. Faqat Mamluklar davridagi turk tili haqidagi “Kitabul idrok” asarining hoshiyasida bu so‘z “egarning old qoshi”, “orqa qoshi” tarzda ajratilib izohlanadi².

“Orqa qosh”, ya‘ni egarning yassi qismi bo‘lgan karsan va bel o‘tirishga qulay qilib yasaladi. Bel va qosh ko‘pkarida chavandozning uloqni boldir ostiga olib, marragacha kelishiga va ot tez yugurganda chavandozning muvozanatini saqlashiga yordam beradi. “Mashriqo” dostonida ot ustidagi Go‘ro‘g‘lini tuya suratidagi devlar tortib olib ketishmoqchi bo‘lganida Go‘ro‘g‘li egar qoshidan ushlashga majbur bo‘ladi:

¹ Olim “er so‘zi bir, ezar ko‘ki uch” sav (maqolini keltirib (bu o‘rinda “ko‘k” – egar bog‘i ma‘nosida) egarning qoshi uch qayish bilan bog‘langanligini qayd etadi. Ot anjomlarining surat va rasmlarini ishimizning so‘ngida berdik.

² “Китабул идрок” Истанбулдаги Boyazit umumiy kutubxonasi, Valiuddin Afandi kitoblari bo‘limida, 2896-raqam bilan saqlanmoqda. – A.T.

Tuya suratida jodugar devlar,
Go‘ro‘g‘lini endi havoga tortdi.
Hech kimman Go‘ro‘g‘li ishi bo‘lmadi,
Go‘ro‘g‘lida endi toqat qolmadi,
Ikki qo‘llab egar qoshdan ushladi.
Qatti kunda bunda ko‘zin yoshladi.

Egarning ikki qoshi o‘rtasi, ya‘ni bel qismi qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, no‘g‘oy, qirim va boshqalarda “ko‘pchuk” termini bilan yuritiladi. “Devon”da ham bu kalimaga duch keldik. M.Koshg‘ariy “ko‘pchuk”ning o‘g‘uzcha bir so‘z ekanini yozadi.

Egarni ot beliga qo‘yganda uning ikki sirtiga tegib turuvchi qismlar **qaptal** (qoptol) deyiladi. Egardagi bu yon taxtalar qozoq tilida ham ayni termin bilan, turk tilida esa, “qaltak” deb yuritiladi. Professor, doktor Faruq Sumer “qaltak”ning chig‘atoycha asarlarda egarning teri qismi, egar og‘ochi, Usmonli yozuv yodgorliklarida egarning yog‘och qismi va karsanini ifodalagani, bu so‘z fors tiliga, bolqon tillari orqali esa, serbchaga kirganligini qayd etadi [Фарук Сумер 1998: 68].

Qaptallarda bir xil teshiklar bo‘lib, bularga uzangilar osib qo‘yiladi. Darvoqe, egarning qosh va beli birikkan joyida ham teshik qoldirilganki, bu teshik ham egar, ham chavandoz uchun shamollatgich vazifasini o‘taydi. Biz egarning asosiy qismlari bilangina tanishdik. Aslida, egar 24ta kichik-kichik qismlardan yasalgan bo‘lib, bu qismlar bir-biriga mol payidan eritilib tayyorlangan yelim bilan biriktirilgan bo‘ladi. “Oddiy egarning asosi toldan yasaladi, mustahkam egar esa, qayrag‘och va shunga o‘xshash qattiq chayir yog‘ochdan, xususan, tog‘ zarangidan ishlanadi” [Зарифов : 87-89].

Egarlar yasash formasi, tuzilishi bir xil, biroq dong‘i ketgan, egalari boy otlarning egari hashamatli bo‘ladi. Xususan, dostonlardagi qahramon otining egari ham shunday egarlardan:

Mullalar o‘qiydi zeri-zabarni,
Ustalar ishlata tesha-tabarni,
Boz ustidan qo‘yaberd bek Ravshan,
Tilla qoshli karsani kumush egarni¹.

Egar yasash ustadan katta mahorat, sinchkovlik talab qilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ota-bobolarimiz yasagan egarlar pishiqligi, mustahkamligi va nafisligi bilan ajralib turgan. Hatto X asrda Turkistondan chetga chiqarilgan eng sara ixroj mollari ichida Shosh (Toshkent) ko‘nchilari tomonidan yasalgan egarlar bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar bor. Tarixchi B.Ahmedov “O‘zbek ulusi” kitobida O‘rta Osiyolik savdogarlar bu yerga keluvchi ko‘chmanchilarni ipak va paxtadan to‘qilgan matolar, kiyim, poyabzal, egar bilan ta‘minlaganini yozadi “[Ahmedov 1992: 123].

Endi “...sachog‘i zumraddan zarrin davir”ni tavsiflaymiz. Hurmatli olimimiz Hodi Zarifov davirni so‘nggi vaqtlarda salt otlarda ishlatilmagan bo‘lishi kerak va bu anjomni baxshilar o‘zlaricha tasavvur qilib, bayon qilgan, degan fikrni aytadilar: “... bu to‘g‘rida (ya‘ni, davir haqida. – A.T.) qishloq keksalaridan surishtirganimizda qanoatlanarli javob ololmadik”.

Tekshirishimiz davomida, davir haqida so‘ragan kishilarning hammasi bizga parallelogram shaklidagi, atrofi chochoqlar bilan ziynatlangan va egar qoshiga kiygizish uchun teshik qoldirib qo‘y junidan tikilgan anjomni ko‘rsatishdi. Faqat, Navoiy viloyat, Nurota nohiya, Debaland, Ajirim, Chashma qishloqlarida bu anjomga nisbatan “**dikkika**”, Farg‘ona viloyat, Kirov nohiyasiga qarashli Ropqon qishlog‘ida “**dikkak**” (chavandoz Xolmat ma‘lumoti) nomi qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik.

Davir ot ustiga tashlanadigan boshqa anjomlarga nisbatan ancha keng. Buni dostonlardan payqasa bo‘ladi:

Bek Ravshanning otga solgan daviri,
Tushadi Jiyronning **baqalog‘iga** (ta‘kid bizdan. – A.T.)

¹ Ravshan. Doston. Ergash shoir varianti. Keyingi parchalar shu dostonidan olinadi.

Poyga yoki uloqdan terga borib chiqqan ot albatta dovur bilan o‘raladi. Oddiy qilib, dovurni o‘tning “choponi” deyish mumkin.

Mahmud Koshg‘ariy egar ustidan o‘raladigan narsaga o‘rtuk (yopinchiq) deyilishini qayd etadi¹. Tilshunoslardan Ahmad Vofiq Posho (“Lahjai Usmoniy, 138-bet) va Shamsiddin Shomiylar ham bu so‘zni ayni ma’nodada ishlatiladi.

Eron tili mutaxassisi, tarjimon Osim Afandi Eron turklari ham o‘tning sag‘risi ustiga tashlanadigan ot anjomini “o‘rtuk” deyishlarini qayd etadi². Koshg‘ariy “chiktan” ismli, vazifasi jihatidan dovurga o‘xshagan yana bir anjomni eslatadi. Biroq biz hozirgacha bu so‘zni turk lahjalarida uchratmadik. Fikrimizcha, devonda izohi keltirilgan “o‘rtuk” bilan davir ayni anjom bo‘lishi kerak. Ayildan keyin tashlanadigan yopinchiq anjom – davur ham oddiy va hashamatli tarzda ishlangan. Farang elchixonasi ma’murlaridan mashhur Antonio Golland 1672 yilda Edirna shahriga va keyinroq Lexistan shahriga qilgan sayohati davomida “ko‘rgan ko‘zni qamashtiradigan” turk otlaridagi yopinchiqlarni esdaliklarida tez-tez tilga oladi. A.Golland bomdod nomozini o‘qish uchun Sulton Salim jomesiga kelgan To‘rtinchi Mehmetning to‘qqiz otidan uchtasining yopinchiq‘i marvarid, boshqa uchtasining og‘ir oltin ishlovli, oxirgi uch otdagi yopinchiqlarning har xil qimmatbaho toshlar bilan bezanganligini ko‘rganini aytadi³. O‘zbekiston tarix muzeyidagi “Qo‘l san‘at asari namunalari” bo‘limida ham ana shunday qimmatli, naqshindor dovur saqlanmoqda. Baxshi:

Ot beliga yozib, kerib tashladi,

Qimmatbaho zar chochoqli davirdi,

deganda shunday anjomlarni nazarda tutgan.

Egarning ustidan **ayil** tortiladi. Ayil to‘rt qismdan iborat. Bular **to‘g‘a** (to‘qa) deyiluvchi yarim oy shaklida asosiy qism va **tortqi** deb ataluvchi charm qismlardir.

Ayil qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkmanchada ayil, usmonli turkchasida esa **qo‘lon** deb ataladi. Mahmud Koshg‘ariyda ham bu terminga izoh berilgan⁴. Professor doktor Faruq Sumer shu ma‘lumotni beradi: “Tadqiqotchi Doerfer qo‘lonning “qo‘roi” shaklini keltiradi va ayil (qo‘lon)ni turkcha deb ko‘rsatadi. Glauson qayd etgani kabi⁵ ayil “at – Tuhfat‘uz-zakiyya”da (13a)⁶ tilga olinadi. Ibn Muxanning mo‘g‘ulchaga doir bo‘limida “al-hizom” (qo‘lon)ning mo‘g‘ulchasi “o‘lon” ekanligi yoziladiki, (225-bet) bu so‘zning “qo‘lon”dan yasalganligi shubhasizdir⁷.

Ayil ot to‘shini kesib ketmasligi uchun mayin jun yo ipakdan, silliq qilib to‘qiladi. Baxshi bu narsani ham nazardan chetda qoldirmay ta‘kidlaydi:

Soqibulbul tortdi o‘tning beliga,

Sirti ipak, ichi mayin ayildi.

Qo‘shimcha ayil⁸ vazifasini bajaruvchi va tuzilishi aynan ayilga o‘xshagan ot anjomi **pushtan** deyiladi. Pushtan qattiq charm yoki pishiq materialdan yasaladi. Biroq, pushtanga ayildan ko‘proq zeb beriladi. Dostonda pushtanning qubbalari soni ham aytiladi:

Qamchi ursa o‘tadi osmonda qushdan,

Hech kamligi yo‘q yo‘rg‘a yurishdan.

Shu zamonda tortdi o‘tning belidan,

O‘n sakkiz qubbali chig‘atoy pushtan.

¹ “O‘rtuk-as-satrato a‘la kulli shay‘in nahvul g‘oshiyati a‘las-sarji va ma yubsatu minad-dibaj a‘la quburil akobiri”, ya‘ni egar kabi narsalarning ustiga o‘raladigan yopinchiq. Ulug‘larning qabrlari ustiga tashlanadigan matoga ham aytishadi. Qarang: “DLT”, “o‘rtuk”.

² Osim Afandi. “Buxroni qotiy” tarjimasi. II jild. – B. 196.

³ Antoine Golland. “... Kundaalik хотиралар”. – Istanbul, 1989. – B. 94, 124-126, 138.

⁴ Kўлон – ал-хизаму. Кўлон эти – мавзи ул-хизам мунал фараси – кўлон эти отда кўлон турадиган жой. “ДЛТ”. “kolon”.

⁵ Фарук Сумер бу ўринда муаллифнинг этимологик луғати “Ab Etymological dictionary of pre-thirteenth century” (Turkish, Oxford, 1972) asarini nazarda tutayпти. – A.T.

⁶ Bu asarning muallifi va yozilgan sanasi haqida ma‘lumot topolmadik.

⁷ Фарук Сумер. Кўрсатилган асар. – B. 76.

⁸ Qozoqlar ham otlarga ikki ayil bog‘lashadi va ular asl ayilga tol ayul (to‘sh, qorin ayili), o‘tning chotidan o‘tkaziladigan ayilga tartyg‘ ayul, artqy ayul orqa ayil-quyushqon) va shar ayul(chot ayili) deyishadi.

Eposda bu anjomning chig‘atoy pushtan tarzda kelishi xarakterli. Bu narsani tarixiy vaziyat yuzaga keltirgan, bizningcha. Chig‘atoy – O‘rta Osiyoga yurish qilgan Chingizxonning to‘rt o‘g‘lidan birining ismi. Tarixdan ma‘lumki, Chingizxon unga bo‘lib bergan joylar Chig‘atoy yerlari deyiladi. Ko‘p narsalarga chig‘atoy so‘zining qo‘shilishi ham shu tarixiy voqea, aniqrog‘i bosqinchilikning ta‘siri bo‘lsa ajab emas. Pushtan – shu bosqinchilikdan keyin ot anjomi o‘laroq qo‘llangan bo‘lishi mumkin.

Radlov “Sibirdan” asarida (458-bet) qozoqlarning egar korsoni ustidan bir gilam tashlashlari va uni p u s t a n deyiluvchi bir qayish bilan bog‘lashlarini qayd etadiki, bu o‘zbeklardagi pushtanlar.

Quyushqon – ot dumi ostidan o‘tkazilib egarga biriktiriladigan qayish. Bu anjom jundan tayyorlanishi ham mumkin. Quyushqon ot tez yugurayotganda egarning oldinga siljishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ayniqsa, ot tepaliklardan tushayotganda quyushqon qo‘l keladi. Bu anjom hozir otlarimizda kamdan-kam ko‘rinmoqda.

Hayvonni tuzadi oyoqdan boshdan,
Pir duosi ketgan do‘nandan-yoshdan.
Ot dumiga sola berdi bek Ravshan,
O‘n ikki uzmali karki **quyushqon**.

Ibn Muxannada “quyushqun” shaklda tilga olingan bu so‘z bizdan forsgacha (“quyushqun” tarzda), qolmiq, samoeyd kabi Sibir qavmlarining tillariga, bulg‘orcha, serbcha va arnavudgacha o‘tganligi xarakterlidir. Mahmud Koshg‘ariyda izohi berilgan “quzurgun” ham fonetik jihatdan biroz o‘zgarishga uchragan quyushqonning ayni o‘zidir.

Keyingi asbob – **yugan**. “Rul” vazifasini bajaruvchi bu anjom ancha murakkab tuzilishga ega. Uning k a l l a k deb yuritiluvchi qismi ot boshiga kiygiziladi. Kallak uchidagi ikki bosh tortqich xalqachalarga esa, yuganning s u v- l i q va t i z g i n i biriktirilgan bo‘ladi. Otni egarlash payti dostonlarda bu qismlar alohida sanalmay, umumiy nom bilan yugan deb o‘tiladi:

Abzal solib Soqi shunday quvondi,
Ot boshiga Soqi endi uzatdi,
Tilla suvin yugurtigan **yugandi**.

(“Malika ayyor”dan)

Biroq, doston davomida, aniqrog‘i qahramon va uning oti yo‘lda, jangda yo ko‘pkaridaligida yuganning bu kichik qismlari va boshqa ba‘zi anjomlar yana bir bor tilga olinadi. Endi bu lavhalarda anjomlar ot va qahramon holatini, kayfiyatini, ruhiyatini ochib berishda muhim detal vositasini o‘taydi. Fikrimizning isboti uchun “Ravshan” dostoniga murojaat qilaylik.

Otasidan duo olib, Zulxumor yorini izlab yo‘lga tushgan Ravshan tezroq manzilga yetish maqsadida Jiyronqush otni qistab borayapti. Jonivor ham egasining maqsadini yaxshi anglab olgan. U “to‘pning o‘qiday” otilib, shamoldek yelib chopayapti:

Endi ko‘ring bek Ravshan,
Shirvon elni izlaydi.
Ostidagi Jiyronqush
Sovub, tortib buyrini,
Tog‘ning boshin ko‘zlaydi.
Ot boradi arqirab,
Davirlari yarqirab,
O‘mildiriq so‘m oltin –
O‘mirovda alqilab.
Tilladandir yoqasi,
Oltin otning to‘qasi...
Chalvar qildi banotdi.
Mindi Jiyronqush otdi.

Chirgilikdan ter qotdi,
Qulog‘in qaychilatdi,
Suvlig‘in qatirlatdi.

Gul Barchinning “Qur hayt, deyman, qur hayt deyman, Boychibor” degan ovozi

Eshitib Chiborning tovoni qizdi,
Ko‘zidan yoshini yerlarga tizdi.
Shu vaqtda achchig‘i kelib chiborning
Suvliqni tishladi, tizginni uzdi”[Алпомиш 1972: 66].

Dostonlardagi ba‘zi o‘rinlarda ot anjomlarining ahamiyatiga urg‘u beriladi:

Adir yerda ot bo‘lmas,
Bo‘lmasa uning to‘g‘asi.
Kiyang chopon yarashmas,
Bo‘lmasa uning yoqasi.

(“Qunduz bilan Yulduz” dostonidan)

“Devoni lug‘otit turk”da “yugun” deya kelgan yugan, XVI asr yozuv yodnomalarida “o‘yan” shaklida¹. Mamluklar davriga oid asarlarda esa, “o‘yugen”, “yugen” va “o‘yan” o‘laroq tilga olingan. Abu Hayyon ham “o‘yan” va “uyugan” so‘zlarini keltirib, bulardan birinchisini qipchoqcha, ikkinchisi, ya‘ni “uyugan”ning Turkiston turkchasi ekanligini qayd etadi. Olim “o‘yonladi” va “uyuganladi” kabi fe‘llarni ham misol tarzda keltiradi². Ayni paytda yugan qirg‘izchada “j u g o‘ n”, qozoqchada “jugen”, ozarbayjonchada “yu y ye n”, hozirgi turk tilida “g ye m” tarzda qo‘llanib kelinmoqda.

S u v l i q bir-biriga kiritilgan uchi dumaloq ikki temirdan iborat. Bu temirlarning halqasimon ikkinchi uchlariga tizgin va kallak taqiladi. Suvliq ham otlarimizda qadimdan ishlatilib kelingan. Oltoydagi qazilma ishlari davomida bir necha tur suvliqlar chiqqan³. Ba‘zi joylarda suvliq “og‘izliq”, “avizdiq” tarzida ham ishlatiladi.

Otning holatini kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqolroq gavdalantirish, badiiy ifodalashda baxshilar ko‘pincha shu anjomdan foydalanishadi:

Bul jonivor guldur-guldur kishnadi,
Chidayolmay suvlig‘ini tishladi [Алпомиш 1969: 21].

T i z g i n 110-125 sm uzunlikda, ko‘pincha puxta to‘qilgan jun yo qayishdan bo‘ladi. Tizgin qo‘lni musht qilgan holda tutiladi. M.Koshg‘ariyda tizgin so‘zi uchraydi va “al-inon” so‘zi bilan qiyoslanadi⁴.

Endi otga egargacha tashlanadigan anjomlarga qisqacha izoh beramiz. Otning usti mayin jo‘rob (shipirgi) bilan shipirilib, q o s h o v degan mayda tishli temir asbob bilan qoshovlangach tashlanadigan birinchi anjom – t e r l i k. Terlik ot badaniga botib ketmaslik uchun yumshoq materialdan tayyorlanadi:

Ot beliga sola berdi bek Ravshan,
Toza ipak, mayin, qalin **terlikni**.

Ammo hozirgi paytda bu anjom o‘rnida namat parcha ishlatiladi. Terlikning asosiy vazifasi ot badanidan chiqayotgan terni o‘ziga olish va uni keyingi ot anjomlariga o‘tkazmaslik. Terlikning

¹ Кўрўрлар эйэрли (эгарли – А.Т.) ўйанли бир от,
Дедилар “ишимиз келишар ўнот”.
(“Сухайлу Навбахор”. XVI аср)

Боқиб икки от кўрди у қазли,
Эйэрли, ўйанли, табулбоғли.

(Айни асар)

² Зағнос: “Бек бир киротим. Икки юз акчалик эгарим ва бир ўйиним(ни) олиб кўйди”, деди. (Бурса қози қайдлари. XV аср)

³ Bu suvliqlarning rasmi ishimizning so‘ngida berilgan.

⁴ A.Inon shomonlarning o‘lim marosimida o‘lik qabrga qo‘yilgach, ot tizginini o‘likning qo‘liga berib “otingni ol!” deyish odati bo‘lganini qayd etadi. Qarang: Tarixda va bugun shomonizm. – Anqara, 1995. – B. 195.

eskidan qo'llanilgan yana bir nomi **al-i-q** bo'lib, bu so'z ayrim g'arb sayyohlarining xotiralarida ham tilga olinadi. "Yoz kechasi issiq shiddatli bo'lgan paytda turklar otlarini usti yopiq joylarda saqlamaydilar. Kechaning salqin havosiga olib chiqadilar; ot ustini qalin yopinchiq bilan o'raydilar, otlariga biroz quruq go'ng surkaydilar. Buning uchun otning go'ngini yil bo'yi to'playdilar, quyoshda quritadilar, aralastirib chang holiga keltiradilar... Ot ustiga tashlaganlari **aliqni** yozu qish qo'llaydilar. Faqat, mavsumga qarab o'zgartiradilar. Bu anjom bilan otni o'rash ot yungining yaltiroq bo'lishini ta'minlaydi va sovuq olishiga mone bo'ladi, deyishadi..." (farang sayyohi De Bucbecr xotiralaridan).

O'rta Osiyodagi turkiy lahjalarda terlik egar yopinchiq'i va egar ostidan tashlanadigan ot anjomi kabi ma'nolarda ishlatiladi. Terlik ana shu tushunchalar bilan fors-tojikcha, mo'g'ulcha, arabcha va ruschaga o'tgan.

Terlikning ustidan tashlanadigan **chirgi** deyiluvchi qo'shimcha anjom qattiqroq materialdan, masalan kigizdan ham bo'lishi mumkin. Dostonlarda chirgi ko'pincha "baxmaldan" deya sifatlanadi.

Farg'ona viloyatiga qarashli Ropqon qishlog'ida bizga **korsonbolish** degan yana bir ot anjomini ko'rsatishdi. Ammo dostonlarda bu nomdagi anjom uchramaydi. Anjom lo'li bolishning kichikroq qilib tikilgani bo'lib, egar karsani ostiga qo'yilar ekan. Ot tikka bo'lganda chavandozning butun og'irligi bir joyga – ot beliga tushadi, egar ham belga botishi mumkin. Xuddi shu paytda karsan bolish haqiqiy "**amartizator**" vazifasini o'taydi. Dostonlarda anjomlar qatorida sanab o'tilgan **bellik** - karsan bolish bo'lishi kerak. Hozircha fikrimiz isboti o'laroq

Belda bellik **bulkillab**

Mehtarida suv shilqillab,

misralarinigina keltira olamiz¹.

Jahaldirik (jazliq, jihildirik, jahazdirik, jo'na) egargacha qo'yiladigan eng zaruriy ot jihozlaridan:

Chambilda bek Ravshan ko'ngli tirikdi,

Endi ko'ring bol Avazdan jirikdi.

Tomosha qing bek Ravshanday to'raga,

Suyab qo'ydi qunduz **jahazdirikdi**.

Egar chirgi yoki belliksiz qo'yilishi mumkin, ammo jahaldiriksiz qo'yilmaydi. Aks holda otning kifti yag'ir bo'lishi mumkin. Jahaldirik egar qoptalini ot kiftiga botishdan saqlab turadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pincha u egarga birlashtiriladi. Anjomning asosi ikki juft qalin namatdan iborat. Bu qalin namatlarning o'zi bir necha yupqa namatlarni ustma-ust qo'yib pishiq ip bilan tikib tayyorlanadi. Jazliqning qoptolga tegib turadigan ust tomoniga charm qoplanadi.

Bu anjomning nomi XIV asr yozma asarlarida "tagaltu", XV asrdan e'tiboran "tagalti" shaklda uchraydi va lug'atlarda "al-barzag'a" (arbardag'a), "al valiyyat" va hatto "al-mirshahatu" bilan forscha "namadzin"ning tarjimasini tarzda ko'rsatiladi. Onado'li turklari tegelti vazifasini bajaruvchi boshqa shunday anjom uchun "ezrim" (eg'rim" terminlarini ishlatishganki, bu har ikki so'z ham XI asrga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy "eyrim"ni "ezrim" shaklda beradi va egarning ikki yonidagi (korsoni ostidagi. – A.T.) teri va namatdan yasalgan narsa, deb ta'riflaydi. Zamonamiz lug'atshunoslaridan M.Muin bu so'zni "adram" tarzda yozib, uning turli manbalarda uchratgani "azram", "adrama", "atrama", "astarma" shakllarini ham ko'rsatadi va bu termini "namadzin va tegeltu" bilan qiyoslaydi².

Uzangi egar qoptoliga osiladigan ot anjomi. Ko'plab g'arb olimlari uzangining bizning ajdodlarimiz ijodi bo'lib, boshqa xalqlarga ulardan o'tganligini e'tirof etishadi. G'arb olimi Vittfogelning ta'kidlashicha, uzangi otliqlarni yanada qo'rqinchli va haybatli holga keltiradi. "Shu tarzda otliqning ustunligi davri boshlandi", deydi olim. Xuddi shu olim Xitoyga miloddan keyingi

¹ Ba'zi shevalarda terlikka "bellama" deyiladi. Biroq korson bolish – bellikning terlikdan farqli anjom ekanligini ajratish qiyin emas.

² Қаранг: "Фарҳанги форсий". 1-жилд. – Б. 36.

200-400 yillari orasida Ichki Osiyodan keltirilgan uzangining Xitoyda 477 yilda keng qo‘llanilgani va 554 yilga oid Tg‘o-ra qabartmasida uzangi tasviri ko‘rilgani xususida fikrlar bildiradi¹.

“Devoni lug‘otit turk”da bu so‘z yo‘q. Ammo, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asaridagi bir she‘riy parchada “uzangi” keladi:

Qara tapsa begler beduyur ko‘par,
uzangi bar irsa chigen berk qapar.

Tarjimasi:

Xalq o‘z vazifasini bajarsa, beklar
buyuk bo‘lib yuksaladi,
Uzangi bor bo‘lsa inson yuganni
quvvatli tutadi².

Turkiylar yashagan territoriyalarda, xususan, Oltoylarga oid Paziriq qo‘rg‘onida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari davomida uzangilarning chiqqanligi³, eski miniatyura asarlaridagi uzangili otlar tasviri bu anjomning ancha yil ilgari otlarimizda qo‘llanilganligi, binobarin, qadimiyligini ko‘rsatmoqda.

Otning bezakli anjomlar qatorida **o‘mildiriq** turadi. O‘mildiriq otning ko‘kragidan o‘tkazilib, ikki uchi egarning oldiga, uchinchi uchi otning o‘mrovi orqali ayilga o‘tkazib qo‘yiladi. U zarli naqshlar bilan bezatiladi. O‘mildiriq ot namoyish yoki poygaga olib borilganda yanada hasham berish uchun taqiladi. Biroq o‘mildiriqning asosiy vazifasi ham bor. Quyushqon egarni oldinga siljishdan saqlasa, bu ot tepalikka chiqayotganda yoki yugurayotganda egarning orqaga surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bezakli anjomlardan yana biri **q o‘ t o s** deb nomlanadi. Radiy Fishning “Jaloliddin Rumi” tarixiy-biografik romanida shunday epizod bor. “Ayrim otlarning bo‘yniga zar bilan ziynatlangan qo‘tos dum taqilgan bo‘lib, u biror qo‘rg‘onning olinishi yoki dushman ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga sulton tomonidan berilgan mukofot belgisi edi” [Фиш 1986:74].

Lekin yozuvchi tilga olgan qo‘tos bilan folklordagi qo‘tos ayni bir narsa emas.

Qo‘tos do‘lana daraxtidan dumaloq shaklida yasaladi. O‘rtasi teshilib mayin iplardan bo‘yibog‘ o‘tkaziladi. Bu iplar 7 xil rangda bo‘ladi. Qo‘tos otini yomon ko‘zdan asraydi, deyishadi. Demak, qo‘tos otga tumor o‘rnida taqiladigan bezakli jihoz. “Alpomish” dostonida Alpomishning Boychiboriga singlisi Qaldirg‘och qo‘tos taqadi:

O‘n ikki oy seni Boybo‘ri boqdi,
Gardaningga Qaldirg‘och **qo‘tos** taqdi.

“Qo‘tos taqib bo‘yni uzun Jiyronga (“Ravshan” dostoni), “Qo‘tos taqdi gardandarozi bo‘yniga” (“Qunduz bilan Yulduz”) deyilganda ham ana shu narsa ko‘zda tutilgan.

Ot egarlash epizodini har bir baxshi o‘z badiiy mahoratidan kelib chiqqan holda tasvirilaydi. Anjomlarning nomlanishi va tartib bilan qo‘yilishida deyarli o‘zgarish ko‘rmaymiz.

“Alpomish” dostoni variantlari o‘zaro qiyoslanganda ot egarlash lavhasining badiiy jihatdan eng mukammal tasviri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Dostonning Berdi baxshi, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li variantlarida esa bu epik qolip uchramaydi, balki bir-ikki jumla tarzda ifodalanadi.

Qiyoslang: “Xudoning loyiq ko‘rgani shu bo‘ldi, - deb toyning ustiga egar, abzal soldi” [Алпомиш 1999: 24].

“Shunda Alpomish egarlab minib qarasa, Boysinda bunday ot bino bo‘lgan emas” [Алпомиш 1999: 22].

¹ O‘sha joyda.

² “Кутадғу билиг”. 6110-байт. Эркин таржима биздан. – А.Т.

³ Rus olimi Radlov ham Janubiy Oltoy territoriyalaridagi qazishmalar so‘nggida “asosan juda keng va yonlari dumaloq, qayin teshiklari tor bo‘lmagan” uzangilar topganini aytadi.

“Alpomish” dostonining Po‘lkan shoir va Ergash shoir, shuningdek, Xushboq Mardonaqul o‘g‘li variantidagi otni safarga tayyorlash, ot egarlash tasviri, bu lavha davomida qo‘llanilgan hikmatli, ibratli so‘zlar salmog‘i badiiylik nuqtai nazaridan Fozil shoir talqinidan qolishmaydi. Solishtiring:

O‘tar dunyo, qiyomatni o‘yladi,
Davlati bor odam cho‘qday jaynadi... [Алпомиш 1999: 24]

Baland tog‘ning bulut kelar ustiga,
G‘anim tushar mard odamning qasdiga...
Mard ishiga barcha odam qoyildir,
Yaxshi so‘zga barcha odam moyildir [Алпомиш 1998: 59].

Ot anjomlariga nisbatan ishlatiladigan sifatlashlarda hayot haqiqatining dostonidagi badiiy talqinini ko‘ramiz: **“kimxobi mayindan bo‘lgan terlik”** – “ichi mayin, tashi baxmal terlik” – *“qora baxmal, zar chochoqli terlik”*¹, **“zarliyu zarbofdan bo‘lgan chirgi”** – “ichi ipak, tashi banot chirgi” – *“sari baxmal chergilik”*, **“bellik”** – “bulg‘ordan tikilgan yaxshi bellik”², **“jahaldirik”** – “jahaldirik” – *“banotdan jabuvi”*, **“Tilla korson, qoshi oltin egar”** – “tillodan choptirgan sirpoy egar” – *“bari joyi(n) oltin bilan ishlatgan egar”*, **“tilladan uzangi”** – “tilladan uzangi” – *“ikkovi ham tillodan jarqillar uzangi”*, **“chachog‘i zumraddan zarli davir”** – “qimmatbaho zar chochoqli davir”³ – **“sirti ipak, ichi mayin ayil”** – “to‘g‘asi tilladan ipak ayil” – *“oq jipakdan zap to‘qilgan ayil”*, **“o‘n sakkiz qubbali chig‘atoy pushtan”** – “poy to‘shab tashlangan chig‘atoy pushtan”, *“oq pishton”*, **“karki quyushqon”** (Bu anjom Ergash shoir va Po‘lkan shoir variantida yo‘q, Xushboq Mardonaqul o‘g‘lida esa “quyushqoni quyma oltin” tarzida keladi), **“tilla yugan”** – “qirq qubbali yugan” – *“barisi oltin jarqillar jugan”*.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan “Ravshan” dostonidagi ot egarlash epizodi baxshning chavandozlik ilmidan to‘la xabardor ekanini tasvirlash barobarida, uning badiiy tafakkur salohiyati naqadar baland ekanligini tasdiqlaydi. Dostonda otni egarlashgacha bo‘lgan harakatlar tasviri Ravshanning ruhiy holati bilan omuxta tarzda beriladi:

Quloq soling turli-turli namaga
Qattiq kunlar tug‘di endi bolaga
Tomosha qing Ravshanxunday polvonni,
G‘ayrat bilan bordi tablaxonaga.

Savdo tushdi bek Ravshanning boshiga
Yoqasi ho‘l ko‘zdan oqqan yoshiga,
Endi ko‘ring bek Ravshanday polvonni,
G‘ayrat bilan bordi otning qoshiga.

Endi qarang Ravshan nodon bolaga,
Qolmasin-da yosh bola bir baloga
Tomosha qing bek Ravshanday polvonni,
Yetaklab Jiyronni chiqdi dalaga” [Равшан 1971: 62].

“Alpomish”dagi epik qolipdan farqli o‘laroq “Ravshan”da otning dastlab yalang‘ochlanishi, yolpushtining olinishi va badanining “guldani jo‘rob, tilla qashov” bilan tozalanishi ham aytiladi:

¹ Qiyoslashda quyidagi tartibga amal qildik – Fozil shoir, Po‘lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Xushboq Mardonaqul o‘g‘li. – A.T,

² Xushboq Mardonaqul o‘g‘li variantida “bellik” uchramaydi.

³ Bu variantda “dovur” anjomi ham tushib qolgan.

Endi bachcha ikki ko‘zin yoshladi,
Tulparni yosh bachcha yalang‘ochladi.
Ayil-pushtanini chechib bedovning
Qulog‘idan oldi zarli yolpushdi.

Bog‘bon terar bog‘ning toza gulini,
Mardlar ochar og‘ir kunda yo‘lini
Ayil-pushtanini chechib bedovning
Shipirib ustidan oldi zulini.

Guldan jo‘rab tilla qashov qo‘lida,
Torta berdi Jiyronning badaniga.

Anjomlarning qo‘yilishi tartibida juz‘iy farq bor.

“Alpomish”da: 1)terlik, 2)chirgi, 3)bellik, 4)jahaldirik, 5)egar, 6)uzangi, 7)davir, 8)ayil, 9)pushtan, 10)quyushqon, 11) o‘mildiriq, 12) yugan. “Ravshan”da: 1)terlik, 2)chirgi, 3)bellik, 4)jahazdirik, 5)egar, 6)uzangi, 7)ayil, 8)davir, 9)quyushqon, 10)pushtan, 11) o‘mildiriq, 12) qo‘tos (bu bezakli anjom “Alpomish” dostonida boshqa o‘rinda “o‘n ikki oy seni Boybo‘ri boqdi, Gardaningga Qaldirg‘och qo‘tas taqdi” tarzda beriladi. – A.T.), 13) yugan.

“Ravshan” dostonida anjomlar qo‘yilayotganda qahramonning bo‘lajak safardan ko‘zlagan maqsadi ham aytiladi. Shuni ta‘kidlash joizki, bu shunchalik anjomning nomiga zo‘rma-zo‘raki moslashtirilib o‘ylab topilgan qofiyadosh misralar emas, balki xalq baxshisining badiiy tafakkurini namoyon etishning nodir usullaridandir:

Bir necha sanamning tishlari durdi,
Izlab borar bo‘ldi Zulxumor hurdi.
Ot beliga yozib, kerib tashladi,
Qimmatbaho zar chachoqli davirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mukinki, dostonlardagi ot egarlash epizodi baxshining badiiy maxorati bilan salohiyati namoyon qiluvchi epizodlardandir. Ot egarlash epizodi davomida sanab o‘tilgan ot anjomlari, ularning nomlari o‘zbek tilining naqadar boy ekanligini ko‘rsatuvchi muhim omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулғозий Баҳодирхон. Шажараи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – 48 б.
2. Ас-Саъиду-с – Самарқандий. Жонзотларнинг тиббий хосиятлари. – Тошкент: Фан, 1994. – 72 б.
Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. – М.-Л.: АН СССР, 1953. – 326 б
3. Ишаев А. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1970. – №5. – Б. 56-63.
4. Мадаев О. Алишер Наваи и мифология // Тез.докл. XXIX сессии постоянно международ.алтаистической конф. – М., 1986. – С. 138.
5. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
6. Шоабдурахмонов Ш. Ергаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1970. – №5. – Б. 43-50.
7. Малла савдогар. Дoston. – Тошкент, 1988. – Б. 352.
8. Зарифов Х. От асбоблари. “Пўлкан шоир” китоби. – Б. 87-89.
9. Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент, 1992. – Б. 123.

10. Алпомиш. Достон. Айтувчи Саидмурод Паноҳ ўғли. Нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 66.
11. Алпомиш. Достон. Айтувчи Берди бахши. Нашрга тайёрловчи Т.Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 37.
12. Қомуси Туркий. – Истанбул, 1317. – Б. 196.
13. Фиш Р. Жалолоддин Румий // Жамол таржимаси. – Тошкент, 1986. – Б. 74.
14. Равшан. Айтувчи Ергаш Жуманбулбул ўғли. – Тошкент, 1971. – Б. 62.

САДРИДДИН АЙНИЙ ВА ИЛМИЙ – АДАБИЙ АЛОҚАЛАР

SADRIDDIN REAL AND SCIENTIFIC – LITERARY RELATIONS

Темиров Фаррух Умедович

*Бухоро давлат университети доценти,
техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

***Annotation.** This article scientifically analyzes the information about the life and activity, scientific and creative path, heritage of Sadriddin Aini, writer, historiographer and public figure, as well as provides information about the world significance of the author's works, his translations, relations of Western scientists to the works of Sadriddin Aini, the place of such works as "Death of a moneylender", "Memories", "Odina", "Bukhara executioners", "Old school", "Slaves" in world literature.*

***Key words:** Jack London, Rudyard Kipling, Maxim Gorky, Knut Hamsun, Said Nasafy, East, West, UNESCO, China, Africa, Iran, Afghanistan.*

Қадим ва навқирон Бухорода илм-у фан, маданият ва маънавият равнакига беқиёс ҳисса қушиб, унинг донғи ни дунёга таратганлардан бири Садриддин Айнийдир. У Марказий Осиё халқлари орасида кенг танилган, шу катта ҳудудда яшовчи халқларнинг адабиёти жаҳон минбарига чиқишга лойиқлигини ўзбек ва тожик тилларида яратган қатор шеърӣ, насрий, тарихий, илмий ва публицистик асарлари билан амалий исбот қила олган бетакрор ва серқирра иждоқорлардан.

Зуллисонан санъаткор сифатида истеъдодини намоён эта олган халқпарвар Садриддин Айнийни ўтган асрда дунё тан олди. Шу боисдан 1962 йилда Қохирада бўлиб ўтган Осиё ва Африка ёзувчиларининг Халқаро конгрессида Айний номи ҳинд Робиндранад Тагор, хитой Лу Син ва араб Тоҳо Хусайнлар каторида тилга олинди Бунданга эътиборлиси, адиб таваллудининг 100 йиллиги жаҳон миқёсида кенг нишонланган эди. 1978-йил Юнеско томонидан “Садриддин Айний йили” деб эълон қилинди [Айний замондошлари хотирасида 1978: 4-5].

Фахр билан айтиш мумкинки, XX асрда Марказий Осиё адиблари орасида Европа аҳли кашф этган адибларнинг дастлабкиси Бухоро фарзанди у Садриддин Айний бўлди. Бунинг исботини эса Европада ном қозонган машҳур ёзувчиларнинг олим ва жамоат арбоби Айний асарларини ўз тилларига таржима қилишга киришишгани мисолида кўриш мумкин. Жумладан, таниқли франсуз алиби Луи Арагон томонидан “Судхўрнинг ўлими” ҳамда “Эсдалиқлар” асарлари таржима қилиниб, фарҳангзабон халқлар эътиборига ҳавола қилинди [Айний замондошлари хотирасида 1978: 9]. У европалиқларни Айний билан таништирар экан: “Садриддин Айний ўзининг “Судхўрнинг ўлими” асари билан жаҳон адабиётининг буюк намояндалари Балзак, Шекспир, Гётелар қаторида луради”, - дея юксак баҳо берди.

	(Togʻay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari misolida)	
105	Eshboyeva Shoira Bakir qizi, “Devoni lugʻotit turk” asaridagi harakatning natijasi boʻlgan holat feʼllari	392
106	Rozumbetova Xilola Umar qizi, Oʻgʻuz lahjasida fonetik xususiyatlar	394
107	Xurramova Aziza Alisher qizi, Togʻon qishloq shevasi leksikasiga doir	397
108	Ollamova Kiyishjon Erkin qizi, Jumaniyoz Sharipovning “xorazm” romanida qoʻllanilgan leksik dialektizmlar	401
109	Axmedova Aynura Quanishbay qizi, Qaraqalpaq tili qubla dialektikasini leksikalik qurami	403
110	Solihova Mahvash Doʻstmurod qizi, Oʻzbek shevalarida bilingvizm hodisasi (Buxoro, Surxondaryo, Samarqand shevalari misolida)	405
111	Turgʻunova Noila Bektosh qizi, Navoiy viloyati shevasida leksik dialektizmlar	408
112	Lolayeva Ozoda, Shevalar bazasida sinonimik leksemalar	411

FOLKLORSHUNOSLIK

1	Jabbor Eshonqulov Epik matnning qiyosiy tadqiqi masalalari	415
2	Bekbergenova Ziyada Utepovna, Professor S.Bahadirova izertlewlirinde qaraqalpaq dāstanlarin salistirmali ūyreniw tājiriybesi	418
3	Xamrakulova Xurshida, Bolalar qoʻshiqlari yaratgan obrazlar	422
4	Salima Mirzayeva, Gulsanam Mashrapova, Ayrin marosimlar xususida	425
5	Палымбетов Камалбай Сарсенбаевич, “Қоблан” дәстанының қарақалпақ хәм қазақ версияларындағы айырым мотивлер типологиясы	429
6	Abdumurod Tilavov Dostonlar – lugʻat boyligimiz manbai	433
7	Temirov Farrux Umedovich, Sadridin ayniy va ilmiy-adabiy aloqalar	442
8	Sayitqulov Ilhom Abdusalamovich, Jangnoma dostonlar va ularning xususiyatlari	446
9	Guljahon Amonovna Mardonova, “Yor-yor” qoʻshiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati	449
10	Tojiboyeva Ozoda Tohirovna, Mansur Afzalovning ilmiy faoliyati xususida	453
11	Sulaymanova Mehrinsa Ibraximovna, Oʻzbek va qirgʻiz xalq qoʻshiqlarida sirgʻaning ramziy-timsoliy talqinlari	456
12	Turgʻunov Sherali Dolixonovich,	459